



2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

TA'LIM MUASSASALARI ODOB-AXLOQ VA PEDAGOGIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARGA O'RGATISH

Masharipov Raxmatulla Beknazarovich

Xorazm viloyati Urganch tumani

Imom Faxriddin ar-Roziy o'rta maxsus islom bilim yurti

ARM rahbari, pedagogika va psixologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida odobnoma darslarida, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida pedagogika darslarida oquvchilarni tarbiyalashda bugungi kun ayrim yoshlarimizning xulq-atvorga odob-axloqqa o'rgatishning ahamiyati va zarurati keltirib otilgan. Oquvchilarning ijodiy fikrlashi bilan birgalikda ayrim muammolarni isloh qilishga orgatish usullari berilgan.

Kalit sozlar: tanqidiy, mantiqiy, tanbeh, tavsiya, ustoz, do'su-sodiq, mehr-muhabbat, poklik va toza qalb .

“Tanbehmi yo tavsiya”, o‘qimang – uqish kerak demoqchiman.

Bugungi kunda kitob o‘qimaslik xavfi dolzarbligicha qolayotganligi kattalarimizni va olimlarimizni o‘rtab qo‘ymoqda. Lekin 4-5 sinflarda o‘qiyotganimizda bir ustozimiz: O‘qish emas,- uqish kerak! degan edi... Darhaqiqat, o‘qituvchi emas, uqtiruvchi bo‘lish kerak, ekan degan fikr meni ushbu maqolani yozishimga turtki bo‘ldi.

1. Aslida inson qalbining tubida eng yaxshi ko‘rgan narsalari, duru-javohirlari bo‘ladiyu, buni hammaga bergisi kelmaydi, balki uni o‘ziga eng yaqin odamiga





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

yoki eng yaxshi odamga berishi mumkin! Shu nuqtai nazardan qaraganda, ko'pchilik o'qituvchilarga, ustozlarga tavsiya qilsam bo'larmikan, buni tanbeh deb hafa bo'lmasmikanlar deb biroz andisha qildim, lekin ichimda qolib ketmasin mabodo bir uquvchiga ta'sir qilsa ham menga shuni o'zi bir katta baxt deb tushundim. 13 yillik o'qituvchilik faoliyatimdan kelib chiqib shu narsalarga erishganim sababini ko'pchilikga yetib borishini istadim. Oldingi yillari har yili qish mavsumi kelishidan boshlab, yiliga kamida ikki marotaba gripp yoki boshqa kasalliklar bilan davolanib yurardim. Uql-dori olish faloncha pul sarflab, o'zingizga ma'lum zarur bo'lardi. Bu yil mana qish mavsumi deyarli o'tib bo'ldi Xudoga shukr hali kasal bo'lganim, dori sotib olganim yo'q desam ham bo'ladi. Buning asosiy sababi shundaki, **DIQQAT QILING!** yil boshidan boshlab har kuni ertalabdan ta'im muassasasiga kelaman (erta turishni barakati, uni foydasini bilsangiz kerak!) ish vaqti soat 8-30 da boshlansa, men deyarli har kuni soat 8-00 da kelaman va o'quv bo'limi binosini kirishida turib o'quvchilarni kelishini kutib olaman, bo'limda 330 dan ortiq o'quvchi o'qiydi ularning taxminan 300-320 nafari ertalab 8-30 gacha kelib ulgiradi. Ertalab kelgan O'quvchilar Assalom alaykum ustoz, deb qo'llarini ko'ksiga qo'yib o'tishadilar, endi o'ylab ko'ring "AS-SALOMU ALAYKUM" degan so'z arabchadan tarjima qilganda sizga sog'liq omonlik tilayman degan ma'noni bildirishini hammamiz bilamiz, keyin yana bir hadisda o'qiganim bo'yicha ko'pchilikning duosi qabul bo'ladi yoki ko'pchilikni ichida duosi qabul bo'ladigan inson bo'lishi aytilgan, shu nuqtai nazardan qaraganda taxminan 320 nafar o'quvchini sizga sog'liq-omonlik tilayman degan so'zini qabul qilib olgan odamni betob bo'lishi hech narsaga to'g'ri kelmasa kerak.





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

2. Har yilgi an'ana bo'yicha 21-martdami yoki boshqa bir kunimi yo bo'lmasa shukrona kunlardami sinfdosh do'stlar yig'ilishib bir bazmu jamshid qilib turamiz. 1 sentabr kuni bir do'stim menga qo'ng'iroq qilib, kelmasang bo'lmaydi, falonchini uyida hammamiz o'tiribmiz uni tug'ilgan kuni, undan keyin biznikiga o'tamiz uyda bitta tovuq va bitta o'rdakni dimlatib qo'yganman deb aytdi. Aytilgan joyga bor, aytilmagan joydan qol, degan naqlga ko'ra bordim. Qarasam tug'ilgan kun yo'q, lekin yangi yil kuni bir yig'ilishib o'tirish bor edi, haligi do'stinga meni aldading tug'ilgan kun kimniki desam, o'rtoq hafa bo'lmaysan bir ishni birga qilmasak bo'lmaydi dedi. Xullas ikki sinfdosh do'stimiz ikki uchdan oydan buyon arazlashib yurgan ekan shularni yarashtirib qo'yish kerak, eski yildagi odat yangi yilga o'tmasin dedi va keyin uni uyiga tovuq bilan o'rdakni yeyish bahonasida yetti kishi bo'lib yig'ildik.

Yig'ilishda menga qo'ng'iroq qilib chaqirgan do'stimni sharofati bilan albatta ko'p qiyinchiliklar bilan ikki arazlashib yurgan sinfdosh do'stlarimiz yarashib olishdi, ularni quchoqlashib ko'rishishlariga ham majburladik.

Maktabda 11 yil o'qigan bo'lsak, bizni sinfda 12 nafar o'g'il bola o'qib bitirgan. An'ana bo'yicha 21-mart kuni sinfdoshlar yana shu menga qo'ng'iroq qilgan do'stimni uyida o'tiradigan bo'ldik. Shu o'tirishda bir narsaga amin bo'ldimki, bizni maktabni bitirganimizga ham 20 yil to'ldi. Lekin necha 10 yillardan buyon qaysi o'tirishda bo'lsa ham 12 sinfdosh yig'ilgan emas edi, har safar kamida ikki – uch bola ayrim sabablarga ko'ra qatnasha olmas edi. Buni qaranki bugun 12 sinfdosh jamul-jam. Shu o'rinda qishki ta'til davrida O'zbekiston halq shoiri Erkin Vohidovga atab yozilgan "To quyosh sochgayki nur" nomli kitobni o'qib chiqib:





2022

DEVELOPMENT AND INNOVATION

SCIENTIFIC ONLINE JOURNAL

<https://sites.google.com/view/imxu/peecrp:1070589>

Do'st bilan obod uying, Gar bo'lsa u vayrona ham.
Do'st qadam qo'ymas esa, Vayronadir koshona ham.
Intizor har uy qadrdon, Dilkusholar bazmiga,
Gar oyoq qo'ysa kabohat, Yig'lagay ostona ham...
...Do'st qidir, do'st top jahonda, Do'st yuz ming bo'lsa, oz.
Ko'p erur bisyor dushman, Bo'lsa u bir dona ham.
Do'sti sodiq yo'q ekan deb, O'rtanib kuyma va lek.
Mehr uyin keng ochsang Erkin, Do'st bo'lur begona ham.

She'ni yodlab olib mulohaza qilib ko'rsam, haqiqatdan ham sinfdoshlarni mehr uyin keng ochib kutgan, faqat ezgu niyatda bo'lgan do'stimni uyida 12 nafar sinfdosh ham qatnashgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Ruhiiy tarbiya" 2016 yil.

Ibrohim Gofurov. „Erkin Vohidov saboqlari“, to'liq nomi „To quyosh sochgayki nur: Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida“ 2018 yil.

Tohir Malik. "Odamiylik Mulki" 2018 yil.

